

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MADRAXIMOVA INOBAT BAXODIROVNA**

**YANGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA KUZ OBRAZINING POETIK TALQINI  
(Usmon Azim, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Xosiyat Rustamova ijodi  
misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Table of contents of the abstract of the doctoral dissertation (PhD)  
in philology sciences**

**Madraximova Inobat Bahodirovna**

Yangi o‘zbek she‘riyatida kuz obrazining poetik talqini (Usmon Azim,  
Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Xosiyat Rustamova ijodi misolida)..... 3

**Мадрахимова Инобат Баходировна**

Поэтическая интерпретация образа осени в новой узбекской поэзии  
(на примере творчества Усмана Азима, Рауфа Парфи, Шавката Рахмана  
и Хосият Рустамовой) ..... 27

**Madrakhimova Inobat Bakhodirovna**

Poetic interpretation of the image of autumn in new Uzbek poetry  
(on the example of the poetic works of Usman Azim, Rauf Parfi,  
Shavkat Rahman and Khosiyat Rustamova) ..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 56

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MADRAXIMOVA INOBAT BAXODIROVNA**

**YANGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA KUZ OBRAZINING POETIK TALQINI  
(Usmon Azim, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Xosiyat Rustamova ijodi  
misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B.2025.1.PhD./3069 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.jdpu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Botirova Shahlo Isamiddinovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Soatova Nodira Isomitdinovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Ravshanova Gulruxbegim Qahramon qizi**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56; e-mail: jdpuinfo@umail.uz) Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o'quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi 4. Tel.:(872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**U.A.Jumanazarov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**F.E.Ibragimova,**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**U.Qosimov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida she'riy poetikani o'rganishga bag'ishlangan bir qator nazariy va ilmiy yo'nalishlar yuzaga kelgan bo'lib, lirik asarlarni har tomonlama chuqur talqin etishga doir tadrijiy izlanishlar izchil davom etmoqda. Ayniqsa, lirika tabiati, obrazning mazmun mohiyati va unda mujassam falsafiy-estetik mezonlar doirasida shoir, matn va kitobxon o'rtasidagi uzviy bog'liqlik muhim interpretatsion model sifatida qaralmoqda. Chunki poetik janrlar qadimiy yunon madaniyatidan to bugungi davrgacha shakllanib va sayqallanib kelayotgan bo'lib, u inson qalbini tarbiyalashga xizmat qiladigan estetik hodisa sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, shoir shaxsiyati va ichki olamini aks ettiruvchi lirik "men"ning mazmuni ham syujet, ham kompozitsion jihatdan yaxlitlik kasb etib, zamonaviy adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Dunyo miqyosidagi taloto'plar natijasida yuzaga kelayotgan ruhiy-falsafiy evrilishlar jarayonida she'riyat inson tuyg'ularini o'zgartirishga xizmat qiluvchi estetik-fikriy o'zgarishlarning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamon va makon chegaralarining torayishi, tasviriy ifodaning ramziy-majoziy qatlamlar bilan omuxtalashuvi bugungi she'riy tafakkurda yangi yo'nalishlarni belgilab bermoqda. Yevropa va rus lirikasidan oziqlangan yangi davr o'zbek she'riyatida millatlararo do'stlik, shaxslararo munosabatlar, jamiyat tomonidan umumiy tan olingan abadiy mavzular badiiy modifikatsiyaga uchramoqda. Ayniqsa, XXI asrga kelib, urush va uning insoniyat boshiga solgan fojialarini poetik idrok etish jahon adabiyotida dolzarb vazifalar qatoriga kirdi. Ushbu jarayonlar zamonaviy she'riyatda obrazlar transformatsiyasi, ularning genezisi va rivojlanish omillarini ilmiy asosda tadqiq etish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Yangi o'zbek she'riyati poetikasida kuz obrazining talqini obrazlar tizimining konseptual kengayishini namoyon etadi. She'rda mavsumiy holat timsoliga aylangan kuz tasviri, ayni paytda, insonning ruhiy holati, ichki kechinmalari, falsafiy mushohadalari bilan bog'liq mazmuniy qatlamlar bilan boyitilmoqda. XX asr she'riyatida kuz obrazining shakllanish tamoyillarini tahlil qilish jarayonida, avvalo, jadid adabiyoti vakillari – Cho'lpon, Fitrat va Hamza singari shoirlar yaratgan badiiy an'analarning keyingi avlodga uzviy ravishda o'tganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, 1970-yillar o'zbek she'riyati vakillari – Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xosiyat Rustamova kabi shoirlar poetikasida kuz obrazi yangicha badiiy-estetik mazmun kasb etdi. Ularning she'rlarida kuz inson hayotining falsafiy bosqichi, ruhiy introspeksiya va milliy ongning ifodaviy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda kuz obrazining poetik evolyutsiyasini izchil o'rganish orqali yangi o'zbek she'riyatidagi obraz transformatsiyasi, ularning genetik ildizlari va mazmuniy yangilanish omillarini aniqlash imkoniyati tug'iladi. Bugungi notinch va tahlikali zamonda azaliy qadriyatlarni, odamiylik qiyofasini saqlab qolish tobora mushkul bo'lib bormoqda. "Mana shunday murakkab vaziyatda ilohiy sarchashmalardan quvvat olib, vaqt va makon chegaralari osha gumanistik ideallarni tarannum etadigan asl san'at, musiqa

va adabiyot xaloskor kuch bo‘lib maydonga chiqishi zarur”<sup>1</sup>. Mazkur tamoyilga tayangan holda kuz obrazining poetik talqini ham estetik ideal va milliy badiiy tafakkur taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda shakllanayotgan hodisa sifatida o‘rganilishi dolzarb masalalardan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida she‘r ilmiga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar yaratilgan bo‘lib, unda obraz yaratish moduslari yetarlicha asoslangan. Xususan, rus adabiyotshunosligida katta bir o‘zanni to‘ldiruvchi ilk nazariy tadqiqot sifatida, V.G.Belinskiy “Adabiy orzular” nomli tadqiqotida “Poeziya – bu butun borliqni bag‘riga bosish va unga singib ketishga bo‘lgan abadiy va hech qachon qoniqish bilmaydigan chanqoqlik”<sup>2</sup>, – deya e‘tirof etsa, faylasuf Fillip Sidni “Poeziya tarixdan yuksakroq turadi, zero, u aqlni bilimlar bilan boyitibgina qolmaydi, balki insonni haqli ravishda ezgulik deb atash va shunday hisoblash qabul qilingan narsaga yo‘naltiradi”<sup>3</sup>, – deb ta‘rif beradi. Binobarin, masalaga yondashuv keyinchalik Italiyada XVII asrdayoq Gabriel Bichelining rang-tasvir asariga nisbatan qo‘llangan. Shuningdek, L.Timofeyev, Y.M.Lotman, G.Pospelovlarning ba‘zi tadqiqotlari masalaga chuqurroq kirib borishga undaydi<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Шарқ тароналари” ўн учинчи халқаро мусиқа фестивалининг очилиш маросимидаги нутқи. <https://uza.uz/posts/629135>

<sup>2</sup> Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. –Б. 104

<sup>3</sup> Сидни Ф. Защита поэзии. Издание подготовила Л.И.Володарская. М., «Наука», 1982. С.179.

<sup>4</sup> Никитин М.В. Курс лингвистической семантики. –СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2007. – 819 с.; Germania topochrono stemmata grafica sacra et profana Gabrieli Bucelini, Ulmate, 1655 / <http://www.collecta.fr/p/col-ouv-03075>. [www.books.google.co.uz](http://www.books.google.co.uz). Тимофеев Л.И. Проблемы теории литературы. – М.: Учебно-педагогическое издательство, 1955; Лотман Ю.М. Об искусстве. – СПб.:

O‘zbek adabiyotshunosligida ham she‘r tabiati, uning badiiy-estetik xususiyatlari, obrazlar tizimi va shoir shaxsiyati bilan bog‘liq masalalarga I.Haqqul, H.Karimov, N.Rahimjonov, Sh.Hasanov, U.Hamdammov kabi taniqli olimlar tomonidan e‘tibor qaratilib, she‘riyatidagi badiiy-estetik izlanishlar, janrlar tizimi va shoirlarning ijodiy individualligi, ijodkor shaxsi va uslubiy izlanishlari, an‘ana va vorisiylik, poetik obraz va obrazlilik, badiiy mahorat muammosiga bag‘ishlangan jiddiy tadqiqotlar olib borildi<sup>5</sup>. Qator tadqiqotlarda she‘riyatning taraqqiyot yo‘nalishlari, ohang va motivlar keng ko‘lamda tahlil qilindi<sup>6</sup>. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon va Xurshida Rustamova kabi yangi davr o‘zbek shoirlarining ijodi misolida “kuz” obrazining poetik modeli ravishda alohida monografik tadqiq etilgan holda o‘rganilgani kuzatilmaydi. Bu esa mazkur mavzuning ilmiy yangiligini belgilaydi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiy tanqid” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yangi o‘zbek she‘riyatida kuz obrazining poetik talqin etish tamoyillarini aniqlash hamda Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon va Xosiyat Rustamova ijodida mazkur obrazning estetik funksiyasi, uslubiy-shakliy izlanishlari va konseptual ifoda modellarini tizimli asosda tahlil qilishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

yangi o‘zbek she‘riyatida kuz obraziga daxldor poetik tasvir elementlarini tahlil qilish asosida ushbu obrazning shakllanish manbalari va semantik ko‘lamini aniqlash hamda bu jarayonning nazariy-ilmiy asoslarini jahon, rus va o‘zbek adabiyotshunosligida mavjud bo‘lgan talqin komponentlari negizida umumlashtirish;

o‘zbek she‘riyatida jadidlar ijodida shakllangan mavzu va g‘oya tendensiyalarining keyingi avlod vakillari – Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat

---

Искусство – СПб, 1998. – 702 с.; Поспелов Г.И. Теория литературы. – Москва. Высшая школа, 1979; Исхоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.

<sup>5</sup> Хаққулов И. Шеърят – рухий муносабат. – Тошкент: 1990. – Б. 186.; Каримов Ҳ. Истиклол даври шеърятини. – Тошкент: Зарқалам, 2005. – Б. 80.; Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърятини: тамойиллар, тажрибалар, сабоқлар. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 260.; Ҳамдаммов У. Бадий тафаккур тадрижи. Монография ва мақолалар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – Б. 200.; Шу муаллиф. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 186.; Ашурова Г. Тимсол – сўз ва маъно асоси. Рисола. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 80.; Ғаниев И., Афоқова Н. Озод рух фалсафаси. Монография. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 152.; Эргашева Ш. Кўнгилнинг моҳипайкари. Рисола. – Тошкент: Университет, 2006. – 56 б.; Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 176.; Умрзоқова Н. Поэтик образ ва маҳорат. Рисола. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 128.

<sup>6</sup> Раҳимжонов Н. Ҳозирги ўзбек шеърятининг тараққиёт тенденциялари. Филол. фан. док... дисс. автореф. – Тошкент: 1989. – Б. 56.; Акрамов Б. Ҳозирги ўзбек лирикасида поэтик образ масаласи. Филол. фан. док... дисс. автореф. – Тошкент, 1991. – Б. 52.; Тўлаков И. Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талқини. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент: 1994. – Б. 46.; Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талқин этиш тамойиллари ва маҳорат муаммолари. Филол. фан. док... дисс. автореф. – Тошкент: 1996. – Б. 51.; Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеърятинида психологик тасвир маҳорати. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент: 1999. – Б. 50.; Сабирдинов А. Ойбекнинг поэтик маҳорати. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2007. – Б. 41.

Rahmon va Xosiyat Rustamova she'riyatida davom etishini, ularning tarixiy, estetik va falsafiy o'zaro bog'liqligini aniqlash;

badiiy g'oyaning lirik obrazga aylanish usullarini alohida tadqiq etish, ular orasidagi umumiylik va xususiylikni tipologik jihatdan tahlil qilish, matn va so'z strukturasi falsafiy-estetik qiyofasini tavsiflash;

*kuz* obrazining zamon va makon (tun, yolg'izlik, iltijo, Yaratganni anglash, o'zlikni izlash, milliy zaminni his etish) bilan bog'liq holatlarda poetik ifodasini tahlil qilish orqali, uni mental xususiyatlar asosida shakllanadigan obraz yaratish usullaridan biri sifatida ilmiy asoslash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon va Xosiyat Rustamovanning she'riy asarlarida *kuz* obrazining poetik talqini bilan bog'liq badiiy matnlar majmuasi tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** *kuz* obrazining poetik talqini, uning shoir ijodiy konsepsiyasida tutgan o'rni, antik yunon va o'zbek adabiyoti an'analari bilan bog'liq nazariy-estetik asoslari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda struktural, germeneytik, psixologik, biografik hamda qiyosiy-tipologik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

lirik badiiy tafakkurda borliqning aks etish genezisi, uning poetik talqindagi shakllanish bosqichlari hamda obraz yaratish vositalarining transformatsion imkoniyatlari aniqlanib, ma'rifatparvarlikdan modernizmga tomon siljish jarayoni yoritilgan;

lirik "men" zamirida *kuz* obrazining g'oya va kechinmalar bilan uyg'unlashuvi, ularning kompozitsion tuzilmadagi tutgan o'rni aniqlanib, bu jihatlar shoirlardagi individual tuyg'ular ifodasi orqali mumtoz poetik an'analarning zamonaviy davrdagi estetik davomiyligi sifatida asoslangan;

barmoq va erkin vaznli she'rlar doirasida *kuz* obraziga oid badiiy ifoda vositalari, ularning g'oyaviy-falsafiy ko'lami, mazmun shakllanishi, shuningdek, badiiy-psixologik olam tasvirining shartlilik darajasi aniqlanib, poetik tafakkur orqali inson ongini yuksaltirishdagi adabiy funksiyasi dalillangan;

badiiy xronotop poetikasiga xos "she'r-zamon", "she'r-makon" va "kuz-vaqt" kabi tushunchalarning o'zaro uyg'unligi va semantik munosabatlari, XX asr boshlaridagi jadidiy poeziya ruhi yangi o'zbek she'riyatida qanday shaklda aks etgani va ularning poetik ifoda vositalari orqali qanday namoyon bo'layotgani aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yangi o'zbek she'riyatida *kuz* obrazining mazmuniy-funksional xususiyatlari tahlil qilinib, poetik tafakkur, davr ruhiyati va shoir individual uslubi bilan bog'liq holda ochib berilgan;

ishlab chiqilgan nazariy mulohazalar va tipologik mezonlar adabiyotshunoslik faniga oid maxsus kurslar, seminar va amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-metodik material sifatida foydalanish imkoniyatini berishi aniqlangan;

to'plangan poetik materiallar va tahliliy xulosalar adabiy obrazlar, ayniqsa, lirik she'r tabiatiga oid poetik timsollarni tahlil qilishda amaliy namuna bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

she'rda badiiy obrazlarning estetik o'ziga xosligini aniqlashda qo'llanilgan usullar, ayniqsa, kuz obrazini o'rganish metodikasi, mustaqil tadqiqot olib borayotgan talabalar, magistrlar va tadqiqotchilar uchun metodologik asos vazifasini o'tashi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar yangi o'zbek she'riyatida kuz obrazining poetik talqiniga oid masalalarni tahlil qilish jarayonida respublika va jahon adabiyotshunos olimlarining nazariy qarashlariga tayangan holda, nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan maqola va tezislar bilan mustahkamlanganligi, shuningdek, tadqiqot vazifalariga mos zamonaviy adabiyotshunoslik va qiyosiy poetik tahlil metodologiyasi asosida tanlangan usullarning izchil qo'llanilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda tahlil etilgan adabiy-badiiy va ilmiy-nazariy manbalar, kuz obrazining yangi o'zbek she'riyatidagi poetik talqiniga doir yakuniy xulosalar va nazariy asoslar nafaqat adabiyotshunoslik fanida yozuvchi mahorati, poetik tafakkur, badiiy xronotop, obraz yaratishning zamonaviy yo'nalishlari kabi dolzarb masalalarni yoritishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, "Yangi o'zbek adabiyoti", "Jahon adabiyoti", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Adabiyotshunoslik nazariyasi" kabi oliy ta'lim fanlari doirasida darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, maxsus kurs va seminar mashg'ulotlarini boyitishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yangi o'zbek she'riyatida kuz obrazining poetik talqinini aniqlashtirish borasida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

lirik badiiy tafakkurda borliqning aks etish genezisi, uning poetik talqindagi shakllanish bosqichlari hamda obraz yaratish vositalarining transformatsion imkoniyatlari aniqlanib, ma'rifatparvarlikdan modernizmga tomon siljish jarayoni haqida chiqarilgan xulosalardan "Bolalar adabiyoti" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-buyrug'i, 218-341-son nashr ruxsatnomasi). Natijada ushbu qo'llanmaning yangi manbalar, dalillar bilan boyitilishiga erishilgan;

lirik "men" zamirida kuz obrazining g'oya va kechinmalar bilan uyg'unlashuvi, ularning kompozitsion tuzilmadagi tutgan o'rni aniqlanib, bu jihatlar shoirlardagi individual tuyg'ular ifodasi orqali mumtoz poetik an'analarning zamonaviy davrdagi estetik davomiyligi sifatida asoslanganligi to'g'risidagi xulosalardan Erasmus+ dasturining 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP ERASMUS+ CBHE IMEP "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli xalqaro ilmiy loyihasida

foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 3-martdagi 613/02-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning yangi manbalar, ma'lumotlar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

barmoq va erkin vaznli she'rlar doirasida kuz obraziga oid badiiy ifoda vositalari, ularning g'oyaviy-falsafiy ko'lami, mazmun shakllanishi, shuningdek, badiiy-psixologik olam tasvirining shartlilik darajasi aniqlanib, poetik tafakkur orqali inson ongini yuksaltirishdagi adabiy funksiyasi to'g'risidagi xulosalardan "Bolalar adabiyoti" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-buyrug'i, 218-341-son nashr ruxsatnomasi). Natijada qo'llanmaning yangi tahlillar, o'zbek adabiyoti haqidagi manbalar bilan boyitilishiga erishilgan;

badiiy xronotop poetikasiga xos "she'r-zamon", "she'r-makon" va "kuz-vaqt" kabi tushunchalarning o'zaro uyg'unligi va semantik munosabatlari, XX asr boshlaridagi jadidiy poeziya ruhi yangi o'zbek she'riyatida qanday shaklda aks etgani va ularning poetik ifoda vositalari orqali qanday namoyon bo'lishi haqidagi xulosalardan 2022-2024 yillarda AQSh Davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan va Toshkentdagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi hamkorligida amalga oshirilgan English Access Microscholarship Program doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 3-martdagi 616/02-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yoshlar orasida kitobxonlik madaniyati shakllanishiga, ularning badiiy-estetik tafakkur va dunyoqarashining kengayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobativiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shulardan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 120 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobativiyasi, tadqiqotning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**O‘zbek she’riyatida kuz obrazi bilan bog‘liq sintezilatsiya hodisasi**” deb nomlangan. Bobning “*Obraz tashuvchi transformatsiya birligi*” nomli ilk faslida poetik obrazning o‘ziga xos qirralariga aniqlik kiritilgan. XX asr o‘zbek she’riyati ibtidosida ijtimoiy-psixologik lirika salmoqli o‘rinni egallaydi. Dunyoning yaratilishi va inson o‘z tabiatini, his va ko‘ngil idroki ila anglagan eng qadimgi zamonlardanoq atrofida bo‘layotgan hodisalarga befarq bo‘lmagan holda yashab kelmoqda. Shunday hikmatlar guldastasi har bir faslda namoyon bo‘lib, insonning tug‘ilishidan to o‘limiga qadar hayot atalmish borliqda akslanishi odatiy jarayon tusini oldi. Idrok qilinayotgan har qanday hodisa zamirida shaxsning muayyan ruhiy-falsafiy ehtiyoji turishi haq gap. Chunki tabiatning inja asrorlari ana shu balandlik sari, ya’ni idealga borib tutashuvini yodda tutmoq joiz. Ideal esa har kimning quvvayi hofizasi negizida bunyod bo‘ladi. Ana shu murakkab va tahlikali jarayonning sira og‘ishmagan shakli – she’r! U ijtimoiy dard bilan shaxsiy tushunchalar uyg‘unligidan bino bo‘larkan, fan-texnika inqilobi sari ketib borayotgan odamlarning fe’l-u kayfiyatini butun-murakkabligicha idroklash tamoyilini boshidan o‘tkazishi tayin. Estetik ideal butun jamiyatning bosh mezoni.

Obraz tashuvchi birliklar transformatsiyasi – Cho‘lpon va Hamza, keyinchalik Usmon Nosir she’riyatida mustahkamlana boshladi. Cho‘lponning quyidagi she’rlarini olib ko‘rganimizda bu achchiq haqiqat yanada oydinlashadi:

*Ko‘nglimda yig‘lagan malaklar kimlar?  
Sharqning onalari, juvonlarimi?  
Qarshimda yig‘lagan bu jonlar kimlar?  
Qullar o‘lkasining insonlarimi?*

*Na uchun ularning tovushlarida  
O‘tgan asrlarning ohangi yig‘lar?  
Na uchun yozmishning o‘ynashlarida  
Har yurish ko‘nglimni nashtardek tig‘lar?<sup>7</sup>*

Ushbu she’r mohiyatida Cho‘lponning butun ijodi aks etgan. Bu aks-sado Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xosiyat Rustamova ijodiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shavkat Rahmonning she’rlarida obraz transformatsiyasi nafaqat turkigo‘y shoirlar, balki G‘arbning zabardast modern ijodkorlaridan sintez qilish orqali inkishof qilinganligining shohidi bo‘lamiz.

Bobning ikkinchi fasli “*Obrazlilikni yuzaga keltiruvchi omillar*” deb nomlanib, unda she’riy matn strukturasi aks etuvchi shoir dunyoqarashining nechog‘lik tafakkur tarziga evrilganiga aniqlik kiritilgan. Tarix juda katta hayot materialini qayta sintez qilish imkonini beradi. Biz olib borayotgan tadqiqotda *kuz* – poetik obrazni tashuvchi **transformatsiya** vazifasini bajaradi. Ya’ni *kuz* obrazi har bir shoir ijodida aniq bir maqsadni idroklashga, falsafiy tig‘izlikni yaratishga, undan katta umuminsoniy ma’noni kashf qilishga yo‘l ochadi. *Kuz* – ayriliq ramzi!

<sup>7</sup> Чўлпон. Сайланма. Яна олдим созимни. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. –Б.4432.

Illo undan o'tib baxtni topish mumkin emas. Navoiy ijodidagi inson umrining farahbaxsh – to'rtta faslining uchinchi kuzdir. Bu farahbaxshlik zamirida yagona Allohni tanishga olib boruvchi mashaqqatli yo'llar in'ikosi jamuljam. Nafs shaytondandir, – deyiladi muqaddas hadislarda. Nafsni tiya va yenga olgan zotlargina maqomi yuksaklarda javlon urar, – deydi Navoiy hazratlari ham. Demak, obrazlilik (kuz poetikasi)da asl haqiqat insonning o'z qadriyatlari bilan baqamti yashash ko'nikmasini ham shakllantiribgina qolmay, uning moddiy dunyoda yashab qolish instinktini ham dalolatlaydi. Bu haqda U.Hamdami ikki jihatni ajratib talqin qilishni ma'qul ko'radi: "XX asrda tubdan ijtimoiylashgan o'zbek she'riyati badiiylik darajasi nuqtayi nazaridan ikkiga ajralmoqda: birinchisi davr muammolari san'atkorona aks ettirilgan, ko'pning dardi shoir dardiga, demakki, ijtimoiy dard shaxs dardiga aylangan, shaxsiylashgan (personifikatsiya bo'lgan) she'riyat. Bunga Cho'lpon, Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Asqad Muxtor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Usmon Azim kabi shoirlar she'riyati misol bo'la oladi. Ikkinchisi davrga xos muammolar badiiylik mezonlaridan turib emas, balki ularning jamiyatda tutgan o'rnini, dolzarbligini qayd etish va jamoatchilik e'tiboriga havola qilish maqsadida yozilgan, shu bilan birga nazmbozlik va maddohlik mahsuli sifatida yozilgan, shu bilan birga nazmbozlik va maddohlik mahsuli sifatida dunyoga kelgan she'riyatdir"<sup>8</sup>. Darhaqiqat, U.Hamdami talqinlaridagi davrga va she'rga, san'atga berilgan baho haqqoniydir. Chunki sobiq ittifoq davrida minglab mafkura chizig'idan chiqmasdan turib ijod qilgan shoirlar bo'lgan. Asl ijod, she'r sog'inchi bilan yashaganlari esa barmoq bilan sanoqlidir. Savol tug'iladi: XX asr she'riyatida, yangi bir bosqichga ko'tarilayotgan adabiyotda obrazlilikni yuzaga keltiruvchi omillar qanday bo'lishi mumkin? Bor bo'lsa, uning mezonlari qanday? Buni quyidagi 5ta muhim omil bilan izohlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1) *XX asr boshlarida Hamza, Cho'lpon, Fitrat kabi shoirlar ma'rifatparvarlik va mumtoz san'at soha vakillarini juda chuqur tushunib yetganligida ko'rinadi. Ularning talpingan ideallari vatanni ozod va qudratli ko'rish, sochilib ketgan saltanatni bir yagona bayroq ostida birlashtirish, Turon, Turkiston degan ulug' mamlakatni bunyod etishdan iborat edi;*

2) *chor Rossiyasining har tomonlama puxta o'ylangan strategik maqsadlarini bu davr vakillari juda chuqur anglab yetgandi. Vaqtida tadbir qilinmasa millat mutelikka va qullikka giriftor bo'lishini oldindan his qilgandi. Ularga chora ko'rilmasa, alaloqibatda, turkiy xalqlar dinidan ham, tilidan ham, e'tiqod-u qadriyatidan ham, hatto kelajagidan ham ayrilib qolish xavfini chuqur mushohada qilgandi;*

3) *san'atning mumtoz shakllaridan yiroq tushmagan holda yangicha shakllarini sinab ko'rish, kashf qilish, muqoyasa va sintez qilish eng birlamchi maqsadlaridan biriga aylangandi;*

---

<sup>8</sup> Хамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. –Тошкент: Фан, 2007. –Б. 42-43.

4) *orzu-umid ramzi* – erk va ozodlik harakati. Garchand bu qudratli kuchlar orasida zaiflik bo'lsa ham, ruhan jasoratli SHAXSlarni tarbiyalab voyaga yetkazish eng katta rejalaridan biriga evrilgandi;

5) *tasvirlash va ifodalash tamoyili*. Unda erkning qadrini, qiymatini, zulmkorlarning qabih rejalarini parchalash, millatni savodli etish maqsadida uyg'otish, milliy davlatchilik asoslarini singdirish, amalda ularni isbotlashni orzulagandi.

Bu tavsiflarni yanada kengaytirish mumkin, biroq mohiyat o'sha – obrazlilikni yuzaga keltiruvchi omillarning – sarobga aylanib, kuzda xazon bo'lishiga olib kelishini anglab yetish tushunchasi qabarib ko'rinadi. Eslang, shu katta salohiyatga ega jadidlarning ko'pchiligi kuz faslida qatag'on qilindi. Ular talpingan ideallarni biz tasavvurimizga ham sig'dira olmaymiz.

Bobning uchinchi fasli “*Lirik kechinmada motivlar modifikatsiyasi*” deb nomlanib, mazkur faslda *kuz* obrazini shakllantiruvchi qator uslubiy komponentlar tig'izligi tadqiq qilingan. Shuni qayd etish joizki, ijodkor hamma vaqtda o'z qalbining kashshofi bo'lib sahnaga chiqadi. U kim va qanday vaziyatda qalam tebratmasin, mohiyatida insoniy go'zallikni qayta idroklash malakasi qabarib ko'rinadi. Shu ma'noda, lirik kechinma tabiatida ***motivlar modifikatsiyasi*** alohida o'rin egallaydi. Olim I.G'aniyev ta'kidlashicha: “She'r, u biror konkret voqea-hodisa, his-tuyg'u yoxud hadis asosida yaratilishidan qat'iy nazar, ilhomning hosilasi sifatida tug'iladi. Binobarin, jonli ijodiy jarayonda shoir hajm bilan ko'p ham hisoblashib o'tirmaydi, balki ma'lum bir fikr yoki his-tuyg'uning tugal tasviri bunda rol o'ynaydi. Albatta, u yozishga kirishishdan oldin rejalashtiriladi, shakl va mazmunini taxminan belgilab oladi. Ammo hamma vaqt bunday “rejalashtirish” ijod jarayoni bilan mos kelmaydi. Binobarin, hajm ham biroz kichrayib qolishi yoki kengayib ketishi mumkin”<sup>9</sup>. Darhaqiqat, she'riy asarda ijodkor davrning manzarasini ko'z o'ngida gavdalanitirar ekan, unda qanday masalalar idrok etilishining to'liq bayoniga o'tadi. Masalan, U.Azim, X.Davron, Sh.Rahmon she'rlarida kuzning poetik jilvasi – inson umri va uning shonli, ayanchli va qayg'uli qismati tarzida tasvirlanadi. Shuning uchun ham she'rning tagida birinchi siyosat, ikkinchi ruhiyat qabarib ko'rinishi tabiiy. Demak, *kuz* motivi ijodkor olamining hali anglanmagan sezimlariga borib tutashuvi shundan dalolat beradi. Shuni qayd etish lozimki, adabiyotshunoslik lug'atida “Motiv” (lot.moveo – harakatlantiraman) – musiqashunoslikdan o'zlashtirilgan termin. Motiv musiqada asarning eng kichik shakl birligi sanalib, asar uning aynan takrorlanishi (shuningdek, o'zgartirilishi yoki zid motivlar kiritish) asosida rivojlantiriladi. Adabiyotshunoslikda motiv termini turlicha ma'nolarda qo'llaniladi. Motivlar turli variantlarda qo'llanilib, lirik qahramonning turfa o'y-hislarini lo'nda va ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, bir shoir ijodi yoki bir davrda yashagan shoirlar ijodi doirasida takrorlanuvchi poetik obrazlar motiv obrazlar sanaladi”<sup>10</sup>. Cho'lponning aksariyat she'riyatida ***erk, ozodlik, hurlik, binafsha***, U.Azimda

<sup>9</sup> Ғаниев Илҳом. Абдулла Ориф фалсафаси. –Тошкент: Муҳаррир, 2021. –Б.99.

<sup>10</sup> Куронов Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.180-181.

daraxt, olov, xazon, kuz, hijron, Sh.Rahmonda ko'ngil, kuz, inson, borliq, olam kabi motivlar mavjud. Bu kabi motivlar tabiatida hamma vaqt ijodkorning umuminsoniy g'oyalari, kechinmalari o'z ifodasini topadi. Musiqadan o'zlashgan atamaning adabiyot, ayniqsa, she'riyat bilan bog'liq qirralari xususida to'xtalganda, haq va oshiq orasidagi ruhiy yaqinlikni uchratishimiz mumkin:

*Qahramton o'tkinchi – to'nmoq o'tkinchi,  
Bahor o'tkinchidir – unmoq o'tkinchi.  
Yoz ham o'tkinchidir – to'nmoq o'tkinchi –  
Faqat kuzak cheksiz – so'lmoq cheksizdir.*

*Qahraton o'ldirsa – muzlik lahzadir,  
Bahor telba etsa – gullik lahzadir,  
Yoz faqat bahorga – qullik lahzadir,  
O, sening ishqingda o'lmoq cheksizdir<sup>11</sup>.*

She'rdagi ayriliq va visol umidida yonayotgan oshiqning dard-u hasrati poetik talqin etiladi. Shoir **kuzning** cheksizligiga shubha qilmaydi. Undan olam-olam ma'no topadiki, boshqa hamma narsaning o'tkinchiligini birma-bir tavsiflab chiqadi. Mana shu yerda poetik talqin shoir badiiy olamining cheksizligini asoslaydi. Qahratonning izg'irinlarida muz ham lahza ekanligini, bahor kelib u erib bitishini nazarda tutarkan, kuz faslida haqiqiy oshiqning ichki iztiroblari xomush tortadi. Oshiq o'z iqrorida kechinmani quyushtiradi. Mana shu she'rda motiv qizil ip bo'lib, kuzning xazonli lahzalarini, uning ayriliq hukmi bilan abadiylikni isbotlashga harakat qiladi. “Zamonaviy o'zbek she'riyatida shakl va mazmun birligi masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki shoirlarimiz tomonidan olib borilayotgan shakliy-uslubiy va mazmuniy o'zgarishlar bugungi she'riyatimizdagi subyektiv olam tasvirini tubdan o'zgartirdi. Lirik kechinmaning ifodasida topoxronos imkoniyatlaridan foydalanish kuchaydi. Buni shoirlar dunyoqarashining shartli aksi deb qarash mumkin<sup>12</sup>, – deya yozadi Q.Yo'lchiyev. Haqiqatdan ham, olimning fikr-mulohazalari o'rinli.

Tadqiqotning **“Poetik talqinda g'oya va kechinma yaxlitligi”** deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi faslida *“Lirik kechinma tabiati”*ga teran nazar tashlanadi. Inson botinini kechinma va tuyg'ular yaxlitligi qamraydi. U xoh vatanga, xoh onaga, xoh do'stga, muhabbatga, tabiatga bo'lmasin, kechinma inson kayfiyatining mahsuli sanaladi. Kechinmaning zalvorli yuki shoirmi tafakkur balandligiga olib chiqadi. Shuni qayd etish lozimki, A.Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy va boshqa ko'plab shoirlarning botinidagi zalvorli tuyg'ular – kechinmalar orqali bizgacha yetib kelgan. XX asrning boshlaridan to shu kunga qadar bosib o'tilgan she'riyat maydonida *kuz* obraziga alohida mavqe, maslak sifatida, tiriklikning bir uzvi deya qaraldi. Erk va ozodlik tuyg'ularini tarannum qilgan

<sup>11</sup> Усмон Азим. Сайланма. –Тошкент: Шарқ, 1995. –Б.391.

<sup>12</sup> Йўлчиев Қ. Ҳозирги ўзбек шеърлятида макон ва замон категорияси. Филол.фан.док.дисс. – Фарғона, 2021. – Б.102.

Cho‘lpondan boshlab, Zebo Mirzogacha bo‘lgan shoirlar “musaffo bir chashmaga talpingan” insoniy tuyg‘ularni talqin qilishda davom etdilar. Har qanday badiiy asarda tutib turuvchi g‘oyalar birligi mavjud. Uning inson ruhiyati bilan bog‘liqligi har birimizga kuch va g‘ayrat bag‘ishlaydi. Dunyoning o‘tkinchiligini, yashashning mangu va muqaddasligini, insonlararo muhabbatning so‘nmasligini taqozolaydi. Kechinma tugal, salmoqdor va zalvorli bo‘lishi lozim. Ayniqsa, shoir o‘zining badiiy olamini inkishof qilar ekan, bunga juda qattiq e’tibor berishi shart hisoblanadi.

O‘tgan davrlarda esa mavzu doirasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, quyidagi 3 xil tasniflash masalaning mohiyatiga kirib borishimizga imkon beradi:

1. *Istiqlolni va hurlikni sog‘inishga bo‘lgan kechinma tabiati.*
2. *Tarixni qayta idrok etishga bo‘lgan kechinma yaxlitligi.*
3. *Muhabbatni tarannum etishga chorlovchi g‘oya(tuyg‘u)lar simfoniyasi.*

Mana shu uchlik shoir tuyg‘ularining asosiy pafosini, ritmini, go‘zalligini idroklashga zamin hozirlaydi.

Quyida R.Parfining she’rlaridagi lirik kechinma tabiatining o‘ziga xos qirralariga aniqlik kiritib ko‘ramiz:

*Men kimnidir kutgayman mahzun,  
Men kimgadir yig‘lamog‘im shart.  
Tanholik-la turibman o‘zim,  
Mening bilan birgina zulmat.*

*Yiroqlarda ingranar List ham,  
Qulog‘imga bo‘zlaydi Furqat.  
Huzurimga chiqmas bir odam,  
Men baribir kutgayman faqat<sup>13</sup>.*

Shoirning mahzunligi nimada? Bunday kutmoqlikning tagida qanday sog‘inch tuyg‘usi, kechinma zalvori yotadi? Bu savollar o‘z-o‘zidan 60-yillardagi erkka tashnalik va ozodlikning ohori to‘kilmagan sog‘inchning mevasi ekanligi ayonlashadi. Quloqqa bo‘zlayotgan Furqat “ozodlikning mungli va g‘amg‘in qo‘shig‘ini” so‘zlab berayotgan bo‘lsa, ajabmas. Monologik nutq, o‘z-o‘ziga ishonch, taskin va iltifot zamirida – kutmoqlik sharti mavjud. Bu kutish onlarini boshidan o‘tkazayotgan shoir “Listning ingrashi”, Cho‘lponning yashirin va mungli sozi emasmikin? Savollar esa muayyan javoblarni ham o‘zi bilan birga olib yurishi tabiiy. Chunki shoir monologik nutqni xususiylikdan umumiylik maxraji tomon olib ketmoqda. Dunyoning hoy-u havaslaridan balandda turgan shoir nazdida “huzuriga bir odam chiqmas”ligini ham bot-bot takrorlamoqda. Haqiqatdan ham, insonning huzuriga kim chiqishi mumkin: davrning manzarasi shuni taqozo etmoqdaki, 60-yillarda ramziy-metaforik ko‘chimlar inson irodasini jiddiy sinovdan o‘tkazdi. Jamiyatdagi har qanday kurashlar, ziddiyatlar metin

<sup>13</sup> Рауф Парфи. Зангори товушлар. –Тошкент: Adabiyot, 2023. –Б.56.

irodani bukib tashlashi tabiiy edi. Shoir soʻzlarni, obrazlarni, sirlar pardasi orqasiga gizlashi<sup>14</sup> ishonchni oqlaydi.

Bobning ikkinchi fasli “*Badiiy yaxlitlikni taʼminlovchi komponentlar sintezi*” deb nomlanib, unda syujet va kompozitsion butunlikning asosiy jihatlariga eʼtibor qaratilgan hamda asoslangan. **Obraz – badiiy yaxlitlik asosi.** Nasriy asarda boʻlgani kabi, sheʼriy nutqda ham obrazlilik, asosan, shakl va mazmun uygʻunligi dalillanib, boʻy koʻrsatadi. Idrok qilinayotgan gʻoya, syujet va kompozitsiya mantiq birligini asoslashga qaratiladi. Sheʼrning oniy bir kechinma ekanligi, shoir bu kechinmaga oʻziga xos “yuk” (mazmun) ato qilishi estetik tafakkurining nechogʻlik yuksakligi bilan oʻlchanadi. Ayniqsa, inson yaxshi mavzularga yondashadi. Oʻzining qurbi idroki yetgan muammolar tegrasida soʻz aytishni afzal deb biladi. Shunday ekan, insonning badiiy olami falsafiy-psixologik tarang nuqtalar bilan yanada jipslashadi. Ushbu faslda Xosiyat Rustamova poeziyasining oʻziga xos tomonlarini talqin qilishga harakat qilamiz:

*Koʻchirolmas shamol borliqni,  
Qoʻporolmas dengizni toʻfon.  
Hayot, boʻlma buncha taniqli,  
Oʻldirishing boʻlmaydi oson.*

*Parchalolmas osmonni yashin,  
Daraxtlarni oʻpirolmas kuz.  
O, kundanda turibdi boshim –  
Qancha oʻlim bilan yuzma-yuz<sup>15</sup>.*

Sherʼdagi poetik axborot shundan iboratki, insonning taqdirini faqatgina Alloh bilguvchidir. Uni har qanday banda, tashqaridagi yovuz kuchlar mahv etishga qodir emas, shuning uchun hayot har bir insonga bir marotaba beriladi, degan mazmun kelib chiqmoqda. Dengiz ham, borliq ham oʻz oʻzani, yoʻlida yashashda davom etadi. Uni tebrata oladigan yagona kuch – Alloh degan itoatni shoir ilgari surmoqda. Kuz – xazon davri. U shunday boʻlsa-da, daraxtlarni oʻpirib, tag-tomiri bilan shunday olib ketolmaydi, bahor kelishi bilan yana yam-yashil bir hayotga aylanadi, degan iqroga keladi. Shunday ekan, insonning qoʻlidan yaxshilik keladi. Yomonlik esa shaytondan, degan ibratli falsafiy-estetik tafakkurni ilgari suradi. Taʼkidlash lozimki, “zamonaviy oʻzbek sheʼriyati keyingi davrda tabiatiga koʻra yangilandi; shakl va mazmun jihatidan har bir shoir ijodiy merosi individuallik kasb eta bordi. Bunday vaziyat shoirlarning adabiy qiyofasini boshqalari bilan hech adashtirmagan holda tanib olish, poetik dunyoqarashni aniqlash, boshqacharoq aytganda, isteʼdodli shoirlarning uslubiy imzosini anglashga yordam berishi mumkin. Shuningdek, zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida oʻquvchini mushohadaga, fikrlash va oʻylashga chorlaydigan, falsafiy mazmuni bilan har bir insonni borliq, tabiat va jamiyat ustida mulohaza yuritishga

<sup>14</sup> gizlash – yashirish maʼnosida

<sup>15</sup> Rustamova X. Саргардон соялар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2021. –Б.8

undaydigan she'riy asarlarning yaxshi namunalari ham paydo bo'ldi"<sup>16</sup>. Darhaqiqat, G.Ernazarova haqli ta'kidlaganidek, she'riyatdagi shakliy-uslubiy o'ziga xoslik anchayin teranlashdi. G'oyaviy-mazmuniy o'zgarishlar sintezi rang-barang qiyofa kasb etib, ijodkor olam bilan munosabatga kirisharkan, o'z botiniga, ko'ngliga qarab intiladigan bo'ldi. Shuning uchun ham, bunday obrazlar o'z yashovchan maydoniga ega bo'lishi tayin.

Bobning uchinchi fasli "*G'oyaviy-badiiy talqin negizida matn yangiligi*" deya atalib, g'oya – o'z-o'zidan yuzaga keladigan jarayon emas, uning ijtimoiy-madaniy, ma'rifiy va umuminsoniy qatlamlari mavjudligi asoslangan. **Kuz intihosida nafs va ruh ziddiyati.** U.Azim she'riyatida g'oyaning ikki xil tabiati yagona estetik markazda uyushadi: insonning tirikligi, iymon bilan e'tiqod orasida mavjud bo'lsa, kuz esa o'lim, ya'ni Yaratganni anglab, chinga qovushish jarayonining tahliliga bag'ishlanadi. O'lim – o'lmasdan turib o'lishdir, deydi muqaddas kitoblarimiz. Alisher Navoiy asarlarini chuqur o'rganib, o'zini shu tadqiqotning inja sirlariga bag'ishlagan I.Haqqulov shunday yozadi: "Modomiki, inson vujudi to'rt unsur dan yaralgan ekan, ularga muvofiq ravishda unga to'rt ruh ham berilgan. Bular: ruhi nabotiy, ruhi jismoniy, ruhi hayvoniy va ruhi insoniy. Yoki nafsni olaylik. Ma'lumki, nafs martabalaridan dastlab Hakim Termiziy so'z yuritib, ularni nafsni ammora, nafsni mulhama, nafsni lavvoma, nafsni mutmainna deya nomlagan. Nafsning bu martabalarini keyinchalik so'fiylar ansori arba'ga qiyoslashgan. Chunonchi: nafsni ammora olovga, nafsni lavvoma shamolga, nafsni mulhama suvga, nafsni mutmainna tuproqqa o'xshatilgan. Bularning har biriga o'n xususiyat nisbat berilgan, bunday moddiylashtiruv esa nafsni, demakki, insonning o'zligini yaqinroqdan anglashga xizmat qilgan"<sup>17</sup>. Haqiqat shuki, I.Haqqulov ta'birida yana ikki jihat namoyon bo'lmoqda, bu to'rt unsur hayotning, tiriklikning mohiyatini anglatsa, ikkinchidan, nafs va ruh ziddiyatining tovlanishlari, dunyo moliga havas qilib oxiratni, oxiratga o'zini tayyorlagan vujud Alloh roziligiga yetishadi, degan aqida ham yuzaga keladi. Demak, inson bahor va kuz orasida hayotning, mavjudlik jumbog'ini anglashning yagona yo'lini qidirib yashaydi. Adashishlar, muvozanatdan chiqishlar, boshi berk ko'chaga kirib qolishlar – hammasi ruhning qichqirig'i, o'z vaslini izlashi, jonning ajri ham, so'zning achchig'i ham, tilning balolarga giriftor qilishi ham insonning bilimsizligidan, tafakkur qilmasligidan kelib chiqishi tayin. Ayni shu yerda Rauf Parfi ham, Usmon Azim ham, Shavkat Rahmon va boshqa shoirlar ham Allohning haqiqatiga, Qur'onning hikmatlariga, Payg'ambarning o'gitlariga amal qilib, she'r, so'z aytmoq ilinjida qalam tebratadi:

*Iltijo etaman – qush qilib yarat,  
Tangrim, uchmoqlikka qanot ber, qanot.  
Ko'nglimga, ko'zimga beparvo qarab,  
Meni yer qa'riga tortmoqda hayot.  
Shaffof shiddatini dunyoga yoyib,*

<sup>16</sup> Ernazarova G. Ҳозирги ўзбек шеърятининг медиатив табиати. – Тошкент: Камар-медиа, 2020. –Б.8.

<sup>17</sup> Ҳаққулов И. Талант – жасрат жавҳари. – Тошкент: Фан, 2018. –Б.12.

*Shamolli yo 'llarim uzlatga ketdi.  
Botib borayapman yerga...  
Xudoyim!  
Hayotning quyqasi bo 'ynimga yetdi.  
Yerga botayapman... Bu tavqe la 'nat –  
Keng dunyo degani shuncha tormikin?  
Tangrim!  
Yolvoraman –  
Qush qilib yarat...  
Yerga qo 'nmaydigan qushlar bormikin?..*

She'rdagi shoir anglagan hayotiy falsafasi – g'oyasi va mantiq uzviyligiga e'tibor berganimizda shu narsa ma'lum bo'ladiki, insonning har qanday vaziyatda komillik sifatleri sari talpinishi, jamiyatdagi barcha dilxiraliklar uning qalbiga kelib urilishi juda chuqur talqin qilingan. Negaki, insonlik – kuz bilan yakun topmoqda. Endi insonlik va odamiylikdan naf yo'q, meni boshqa bir qanoti bor qush qilib yaratgin. Atrofimdagi menga zuqum va zaqqumlar tutgan munofiqlardan charchadim demoqda. O'zini va Yaratganni anglagan teran tafakkurli qalblargina bunday o'tkir falsafiy-estetik konsepsiyasini ifodalay oladi. Shuning uchun ham Tangriga tavallo, tazarru va iltijo qilmoqda. Shoir mantiq chegarasida hazin kuylayotgani yo'q. Bor tafakkuriga monand bir go'zal bitiklarni o'quvchiga ulashmoqda. Bu she'rlar shoir endi qirq yoshlarga to'lgan payti yozilgan. Qirq yillik insoniy idrok chashmalaridan bino bo'lgan falsafiy tig'izlik o'quvchini teran mushohada qilishga undaydi. Qalb ko'zi bilan ruhi ochiq zotlarga buni yoza oladi. Navoiyning yuqorida sanab o'tilgan – to'rt unsur dan topgan falsafasi U.Azimga katta ilhom chashmasini uzatgan. Navoiy buni quyidagicha ifodalaydi:

*To 'rt unsur qaydidin to chiqmag 'aysen, naf' emas,  
Osmoniy to 'rt daftarni tutkaykim yod bil.*

Boshqa bir g'azalida esa shoir ma'nau va ruhan falakka ko'tarilib, samoviy sayrni istasang "badan ansorining chorgohi"ni chetlagil deydi: "badan ansorining chorgohin et xorij Navoiy, desang aylay falak sori ohang". Chunki ruhning qanotini qayirib, uni doimiy turg'unlikka mahkum aylaydigan "chormix" ham ansoridir:

*Desang falakka chiqay, foniy o'l ansoridin,  
Nedinki, ruhingdadur chormix bu to 'rtov'<sup>18</sup>.*

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy abadiyatga erishish uchun, O'zini va Yaratganini teran tanish, nafsning nayranglariga uchmaslikka intilish ham ibodat ekanligini namoyon qilmoqda. Nafs – aldanchidir. U.Azim ayni shu nafsni ammoralariga qarata aytgan, "bilmoq va bilinmoq saodatini" o'z o'quvchisiga tushuntiryapti.

---

<sup>18</sup> Хаққулов И. Талант – жасорат жавҳари. – Тошкент: Фан, 2018. –Б.13.

Tangriga bundan ortiq iltijo qilib bo'lmaganidek, ruhiy iqlim muvozanatini ham bir o'rtalikda mahkam tutmoqlikka yaqinlashtiradi. Shoir badandagi buzg'unchilik va xarobat sari olib boradigan har qanday og'ir ishlarni tark etish muhimligini ta'kidlaydi. Mana shu idrok konseptual qarashlar fonida – *kuz* timsollarning timsoli ekanligi ayonlashadi. Kuz – nafs va ruh ziddiyatining makonidir. Bu makonda shoir xazonni ham, olamning qonuniyatlarini ham o'zining dard-u hasrati deb biladi. Bu hasratga esh dunyoqarash kuzning betimsolligini qayta kashf qilishga yetaklaydi.

U.Azim she'rlarida – kuz motivi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarining mohiyatida o'lim mavzusi yetakchilik qiladi. Faylasuf-shoir Abdulla Sher o'lmaslikni donishmandlar besh turga ajratib talqin qilganligini alohida ifoda etadi: **1. Biologik o'lmaslik. 2. Ijodiy o'lmaslik. 3. Geologik o'lmaslik. 4. Naturalistik o'lmaslik. 5. Hissiy – transtendensiyaga asoslangan o'lmaslik**<sup>19</sup>..

Tadqiqotning uchinchi bobi “**Xronotop poetikasida kuz obrazi uyg'unligi**” deb nomlangan bo'lib, badiiy xronotopning she'r strukturasi va matiqida ifodalanish tamoyillari talqin etilgan. Mazkur bobning birinchi fasli “*Zamon bilan bog'liq kechinma tabiati*” deb nomlangan. Arastuning ta'kidlashicha: “Fazilat nimaligini aniqlashni istasak, biz endi ko'nglimizda nimalar borligi bilan tanishib chiqaylik. (Bizningcha) inson ko'nglida hissiyotlar harakati – pafos (xalq tilida – his-hayajonlar), mayllar (dynames) va ruhiy holatlar (hexeis) bor. Fazilatlar bularning qaysi biriga qloqador ekan? His-hayajonga: jahl yoki qahr-g'azab, qo'rquv, nafrat, havas, hasad, shafqat va shu kabilar kiradi; bular, odatda, insonni yo xafa qiladi, yo xursand qiladi. Mayllar shundayki, bizda qaysi mayllar kuchliroq bo'lsa, o'sha maylga xos his-hayajonlarga berilamiz, yo jahlimiz chiqadi, yo sevinamiz, yo achinamiz va hokazo”.<sup>20</sup> Darhaqiqat, kulliy va tafakkur sohiblarigina jahlni ham, aqlni ham jilovlay oladi. Sobiq tuzum kayfiyati insonni qoq ikkiga bo'lib tashladi: birinchi toifadagilar, bosiq va sipo, ikkinchi toifadagilar o'zlarining g'azab va nafratini, davrning og'riqlarini besabrlarcha yengishga tutindilar. Chunki oldinga maqsad sari intilayotgan odamning makoni ham, zamoni ham – o'z ko'ngli bo'lsa, ba'zi toifalar hamma qusurlarda o'zini benuqson ko'rsatishga odatlanadilar. Odatlanish – taiatan qayta takrorlansa, u naslga ham, nasibaga ham singib ketishi (Navoiy ta'biri) tayin.

XX asrning boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy hayot manzarasi shoirlarga katta kuch va e'tiqod buloqlari bilan sug'oriladigan mazmun va shakllarni taqdim etdi. Cho'lpon va G'.G'ulom, H.Olimjon va Oybekning haroratli poeziyasi ana shu jarayonning mahsuli ekanligini e'tirof etish lozim. “...O'zbek she'riyati yangilanishida ichki omillar hukmron mavqega ega bo'lgan. Shuning barobarida, turk, ozar, qozoq, qirg'iz, turkman she'riyatidagi modernlashuv va qardosh xalqlar adabiyotining jadid milliy matbuotida aks etishi, rus hamda jahon adabiyotidan qilingan tarjimalar g'oya, shakl va mavzu, poetik obrazlar mundarijasida o'zgarish yasadi. Turk adabiyoti ta'siri A.Homid, T.Fikrat, Z.Tavfiq

<sup>19</sup> Абдулла Шер. Абдиёт ва умр. – Тошкент: Файласуфлар нашриёти, 2017. –Б.186.

<sup>20</sup> Арасту. Поэтика. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. –Б.120.

